

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

X.I.Islomovning “Veterinariya diagnostikasi va oziq ovqat xavfsizligi” fakulteti 60840300 – Veterinariya diagnostikasi va laboratoriya ishi ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabalariga “Hayvonlar patofiziologiyasi” fanidan “Yallig’lanishning tashqi mahalliy belgilari va qon tomirlar reaksiyasi” mavzusidagi ochiq amaliy mashg’ulotiga

T A Q R I Z

X.I.Islomovning “Yallig’lanishning tashqi mahalliy belgilari va qon tomirlar reaksiyasi” mavzusidagi ochiq amaliy mashg’ulot darsining uslubiy ko’rsatmasida ushbu muammoning dolzarbligi, uni o’rganishni veterinariya amaliyotidagi ahamiyati atroflicha yoritilgan. Mavzuda mavzuga oid atamalar, ularni izohlari tushuncha holatida berilgan. Amaliy mashg’ulotda foydalaniladigan jihozlar sanab o’tilgan. Bundan tashqari amaliy mashg’ulotning asosiy qismi to’liq yoritilgan.

Amaliy mashg’ulotning taqdimotida “Hayvonlar patofiziologiyasi” fanidan “Yallig’lanishning tashqi mahalliy belgilari va qon tomirlar reaksiyasi” mavzusi batafsil yoritilgan bo’lib, yallig’lanishning sabablari, bosqichlari, yallig’lanishning tashqi mahalliy belgilari, yallig’lanishning kelib chiqishi, yallig’lanishning klinik belgilari tushunchalari keltirilgan. Shuningdek, amalda tajriba ishlari bilan mavzu mustahkamlangan. Bundan tashqari, dars pirovardida mashg’ulot bo’yicha ishlanma talabani fikrlash qobiliyatini oshiruvchi va shular asosida slaydlar orqali mavzu aniq izohlangan.

Amaliy mashg’ulot taqdimotida internet ma’lumotlaridan, slaydlardan rangli rasmlardan foydalanilganligi mavzuni talabalar tomonidan chuqurroq o’zlashtirilishiga yordam beradi.

X.I.Islomovning “Hayvonlar patofiziologiyasi” fanidan “Yallig’lanishning tashqi mahalliy belgilari va qon tomirlar reaksiyasi” mavzusidagi amaliy mashg’uloti matni va slaydlari hozirgi zamon innovatsion ta’lim texnologiyalari talabalariga to’liq javob beradi deb hisoblayman va uni o’quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi
va patologik fiziologiya” kafedrasining
dotsenti, b.f.n.**

D.Eshimov

**X.I.Islomovning “Veterinariya diagnostikasi va oziq ovqat xavfsizligi”
fakulteti 60840300 – Veterinariya diagnostikasi va laboratoriya ishi ta’lim
yo‘nalishi 2-bosqich talabalariga “Hayvonlar patofiziologiyasi” fanidan
“Yallig‘lanishning tashqi mahalliy belgilari va qon tomirlar reaksiyasi”
mavzusidagi ochiq amaliy mashg‘ulotiga**

T A Q R I Z

Amaliy mashg‘ulot mavzusi fan dasturi va ishchi o‘quv dasturiga to‘liq mos keladi. “Yallig‘lanishning tashqi mahalliy belgilari va qon tomirlar reaksiyasi” mavzusidagi amaliy mashg‘ulot, matni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan holda uslubiy tomondan to‘g‘ri taqdimot qilingan. Dastlab amaliy mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari, amaliy mashg‘ulotini o‘qitishning pedagogik texnologiyasi berilgan bo‘lib, unda pedagogik faoliyat va o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan. Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasida esa o‘quv mashg‘ulotining vaqti ko‘rsatilgan.

Agar mavzuda belgilangan reja ketma-ketligiga rioya qilinib, ko‘rgazmali qurollardan o‘z vaqtida foydalanib, tayanch iboralarga izoh berib, amaliy mashg‘ulotda talabalar bilan muloqotda bo‘lib, mavzu yuzasidan fikrlar so‘ralib, o‘tilsa, maqsadga erishiladi. Mavzuning oxirida nazorat savollari va nostandart testlardan ham foydalanilgan.

Mavzuning shakli va mazmuni uslubiy to‘g‘ri yozilgan shuning uchun X.I.Islomov tomonidan tayyorlangan “Yallig‘lanishning tashqi mahalliy belgilari va qon tomirlar reaksiyasi” mavzusidagi ochiq amaliy darsini o‘quv jarayonida joriy qilishni tavsiya qilaman.

**Veterinariya ilmiy tadqiqot
Instituti “Vetsanitariyasi va
urchitish” laboratoriyasi mudiri v.f.d.**

Qo‘ldoshev O.O‘.